YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI NAZARIY ASOSLARI VA O‘ZBEKISTONDAGI USTUVOR YO‘NALISHLARI

Vaxobjonova Muxlisa
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy
universiteti Jizzax filiali Psixologiya fakulteti Iqtisodiyot
yo‘nalishi 1 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada barqaror rivojlanishni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta’rifi, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi va Parij kelishuvi doirasidagi majburiyatlar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, energetika sohasidagi maqsadli ko‘rsatkichlar va mavjud muammolar baholanib, ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, iqlim o‘zgarishi, issiqxona gazlari, yashil moliya.

XXI asrda iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv tanqisligi va tabiiy resurslarning kamayib borishi iqtisodiy o‘sish modelini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. An’anaviy “chiziqli” model, ya’ni resursni qazib olish, ishlab chiqarish, iste’mol qilish va chiqindiga aylantirish tamoyiliga asoslangan yondashuv ekologik tizimlarga bosimni oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka xavf tug‘diradi. Barqaror rivojlanish tushunchasi 1987-yilda BMT qoshidagi Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha xalqaro komissiyaning (Brundtland komissiyasi) “Bizning umumiy kelajagimiz” ma’ruzasida ilmiy muomalaga kiritilgan. Unga ko‘ra, barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga zarar yetkazmagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishni anglatadi [1]. “Yashil iqtisodiyot” esa ushbu maqsadga erishishning iqtisodiy mexanizmi sifatida qaralmoqda. Maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rnini nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda O‘zbekiston misolida mavjud imkoniyat va to‘siqlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy tahlil va hujjatlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi.

BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) 2011-yilda e’lon qilgan “Yashil iqtisodiyot sari” hisobotida bu iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilaydigan, shu bilan birga ekologik xavflar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida ta’riflagan [2]. Demak, yashil iqtisodiyot uchta o‘zaro bog‘liq ustunga tayanadi: iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy inklyuzivlik va ekologik barqarorlik. Uning asosiy belgilari past uglerodli ishlab chiqarish, resurslardan samarali foydalanish hamda daromad va ish o‘rinlaridan keng qatlamlarning bahramand bo‘lishidir.

2012-yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan BMTning Barqaror rivojlanish bo‘yicha konferensiyasida (“Rio+20”) yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish va qashshoqlikni bartaraf etish kontekstidagi muhim vositalardan biri sifatida e’tirof etildi. Shuni ta’kidlash lozimki, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning o‘rnini bosmaydi, balki uni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Uning asosiy yo‘nalishlariga qayta tiklanuvchi energetika, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va aylanma iqtisodiyot, barqaror qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi, ekologik toza transport hamda yashil moliya kiradi.

Xalqaro asoslar va tajriba: 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi “Dunyoni o‘zgartirish: 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi”ni qabul qildi. Hujjat 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi va 169 ta vazifani o‘z ichiga oladi [3]. Yashil iqtisodiyot ayniqsa arzon va toza energiya (7-maqsad), munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish (8-maqsad), sanoat va innovatsiyalar (9-maqsad), barqaror shaharlar (11-maqsad), mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish (12-maqsad) hamda iqlim bo‘yicha harakatlar (13-maqsad) bilan chambarchas bog‘liq. Xuddi shu yili qabul qilingan Parij kelishuvi global haroratning o‘rtacha ko‘tarilishini sanoatlashuvdan oldingi davrga nisbatan 2 °C dan ancha past darajada ushlab turishni, harorat ko‘tarilishini 1,5 °C bilan cheklashga intilishni nazarda tutadi [4]. Har bir davlat o‘z milliy hissasini (NDC) belgilaydi va uni muntazam yangilab boradi. Yevropa Ittifoqining 2019-yilda e’lon qilingan “Yashil kelishuv” dasturi esa 2050-yilga kelib iqlim neytralligiga erishishni maqsad qilgan [5]. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy samara ham beradi. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda qayta tiklanuvchi energetika sohasida dunyo bo‘yicha 16,2 million kishi band bo‘lgan [6]. Bu yashil sektor yangi ish o‘rinlari yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlandi [7]. Strategiya energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, “yashil” energiyadan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni ta’minlashga qaratilgan. Hujjatda, shuningdek, energiya tejash va energiya samaradorligi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, monitoring va hisobot tizimini joriy etish hamda issiqxona gazlari chiqindilari uchun to‘lovlarni joriy etish kabi iqtisodiy vositalarni ishlab chiqish nazarda tutilgan [7]. Qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini 1 million gektargacha maydonda joriy etish ham ustuvor vazifalar qatorida ko‘rsatilgan. O‘zbekistonning iqlim sohasidagi majburiyatlari 2021-yilda yangilangan ikkinchi NDC bilan kuchaytirildi. Unga ko‘ra, 2030-yilga kelib YaIMning bir birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasi 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirilishi rejalashtirilgan, birinchi NDCda esa bu ko‘rsatkich 10 foiz edi [8]. Qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha maqsad ham oshirildi: 2024-yilda 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun o‘rnatilgan quvvatdagi ulush 25 foizdan 40 foizga yetkazish belgilandi, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 14 foizni tashkil etgan [9]. 2025-yil iyul oyida esa “Issiqxona gazlari chiqindilarini cheklash

to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani chiqindilarni monitoring qilish, maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash va yumshatish loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy asos yaratdi. O‘zbekiston uchun bu fursat kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, qishloq joylarida energiya ta’minotini yaxshilash hamda sanoatning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini oshirish bilan bir qatorda elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish va tarmoqqa integratsiyani yaxshilash;

ikkinchidan, energiya samaradorligi bo‘yicha majburiy me’yorlarning bajarilishini nazorat qilish, energiya auditi va monitoring tizimini kuchaytirish;

uchinchidan, yashil obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar va davlat-xususiy sheriklik asosida yashil moliya vositalarini kengaytirish, kichik biznesni yashil innovatsiyalarga jalb qilish;

to‘rtinchidan, uglerod narxini belgilash mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish va energiya narxlaridagi subsidiyalarni oqilona qayta ko‘rib chiqish;

beshinchidan, oliy ta’lim muassasalarida ekologik iqtisodiyot, energetika menejmenti va barqaror moliya yo‘nalishlari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini uyg‘unlashtiruvchi muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi. Xalqaro miqyosda u 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi va Parij kelishuvi bilan mustahkam bog‘langan. O‘zbekistonda 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiya, yangilangan milliy majburiyatlar va yangi qonunchilik bu yo‘nalishda tizimli asos yaratdi. Biroq ko‘rsatkichlarga erishish uchun qazib olinadigan yoqilg‘iga bog‘liqlikni kamaytirish, institutsional muvofiqlikni kuchaytirish, yashil moliyani rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Bu choralar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va ekologik xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP, 2011.
2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/70/1. New York, 2015.
3. United Nations. Paris Agreement. UNFCCC, 2019.
4. European Commission. The European Green Deal. COM(2019) 640 final. Brussels, 2021.
5. IRENA and ILO. Renewable Energy and Jobs: Annual Review 2024. Abu Dhabi, Geneva, 2024.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori “O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. lex.uz.

7. UNDP Uzbekistan. People and Government of Uzbekistan take action to confront the climate crisis collectively. 1 November 2021. www.undp.org/uzbekistan.
8. OECD. Promoting green investment in Uzbekistan. In: Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing. www.oecd.org.

YAPONIYADA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH JARAYONLARI VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR

Murotov Shoxzod Abdunazar o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedra o‘qituvchisi
murotovshoxzod99@gmial.com
ORCID ID: 0009-0009-9885-2212

Annotatsiya: Ushbu tezisda Yaponiyada yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy etish tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, Yaponiyaning yashil iqtisodiyot sohasidagi yutuqlari va mavjud muammolari o‘rganilib, ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, Yaponiya tajribasi, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar.*

Abstract: This thesis analyzes the formation and development stages of the green economy in Japan, focusing on experiences in enhancing energy efficiency, utilizing renewable energy sources, and implementing eco-innovations. Furthermore, it examines Japan’s achievements and existing challenges within the green economy sector and explores the potential for applying these experiences to the context of Uzbekistan. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to accelerate the transition toward a green economy in our country.

Keywords: *green economy, Japanese experience, sustainable development, energy efficiency, renewable energy, green technologies.*

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy rivojlanish bilan atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg‘unlashtirishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Yashil iqtisodiyot energiya va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, zararli chiqindilarni kamaytirish hamda yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni nazarda tutadi. Bu borada Yaponiyaning tajribasi O‘zbekiston uchun qiziqish uyg‘otadi. Chunki Yaponiya energiya resurslarining katta qismini tashqaridan olishi sharoitida energiya tejamkorligini oshirish va muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.